



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

ISOJON SULTONNING «MEN, ONAM VA O‘RTA YER DENGIZI» HIKOYASIDA ONA VA VATAN TIMSOLI

MAXSUTBAEVA NIGORA

Ajinyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar
fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti 1-kurs talabasi
nigoramaxsutbaeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr o‘zbek adabiyotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan postmodernistikani yuksak cho‘qqilarga ko‘targan Isojon Sultonning “Men, Onam va O‘rta Yer dengizi” hikoyasi adabiy-badiiy tahlil etilib, unda ona va ona-Vatan timsollari tasviri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: peyzaj tasviri, kommunikativ aloqa, ifoda plani, vatanga muhabbat, milliy qadriyat.

Hech bir yozuvchi yoki ijodkor yo‘qki, vatan madhini kuylab ijod qilmagan. Ana shunday zamonaviy adabiyotimizning darg‘alaridan biri Isojon Sultondir. Ularning ijodiyti asosan o‘zida XXI asrning eng ommabop yo‘nalishlaridan bo‘lmish modernizm va postmodernizmni o‘zida aks ettirganligi bilan boshqa ijodkorlardan tubdan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, uning “Men, Onam va O‘rta Yer dengizi” hikoyasining adabiy-badiiy tahliliga to‘xtalsak. Asar syujeti, tili unchalik ham murakkab emas. Bosh qahramon Ona. U orqali yozuvchi “Ona” va “Vatan” tushunchalarining kommunikativ aloqadorligini yoritib berishga harakat qilgan. Chunki barchamizga ma‘lumki har bir go‘dak onggiga Vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat kabi tuyg‘ular, avvalombor, onalarning tarbiyasi ila singdirilib boriladi.

Yozuvchi bosh qahramon timsolida butun bir insoniy xislatlarni jam qilgandek g‘o‘yo. Nega deysizmi? Ushbu jumalarga nazar tashlasak, “-*Tavba, xudoyim shuncha suvni yaratibdi-yu ichib bo‘lmaydigan qilib qo‘yganini ko‘r!*”. [1.] Hikoya qahramoni nutqidan keltirilgan so‘zlar ma‘nosi eng birinchi navbatda Allohning qudratiga bo‘lgan ishonchni dalillab kelmoqda. Voqelar rivojiga diqqat qilsak, mehmonxonaga kelgan paytda maxsus xodimlar yengil bo‘lsa ham yukni ko‘tarishga yordamlashayotganda ona buni o‘zi qilishini aytadi. Bu esa, albatta, o‘zbek ayolariga xos bo‘lgan kamtarlikning namunasidir. Hikoyadagi Ona timsolining xarakter qirralari bilan O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi Hakima aya obrazi o‘rtasida o‘xshashlikni anglab yetish qiyin emas. Albatta, har bitta asar o‘ziga xos tuzilishga ega va ularning deyarli barchasida ma‘lum bir badiiy tasviriy vositalar, unsurlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodkor shu vosita va



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

unsurlarda o‘z mahoratini namoyon etadi. *“Saharlab onam meni uyg‘otdi. Eh-he, qanchalar sog‘inganman shu sasni, shu uyg‘otishni, Jilmayib uyqudan ko‘z ochish saodati qanaqa bo‘lishini bilsaydingiz!”*. Bu barchamizga tanish bo‘lgan holat. Nega aynan yozuvchi bunday so‘zlarni muallif nutqidan emas, balki aynan qahramon tilidan bermoqda, chunki bunda u o‘zining ifodaviy ta’sir kuchini yo‘qotmaydi. Asardagi “zamonaviy marketing” tushunchasining qo‘llanganligining ham alohida sababi bor. Chunki hozir 2023-yil bo‘lsa, bundan 5-6 yil avval ko‘pchilik bu so‘zning ma’nosini tushunmasdi. Hozirga kelib esa, bu so‘z hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Demakki, shunday fikrga kelishimiz mumkinki, ushbu asar insonga faqatgina bilim berib qo‘ymasdan, balki shu bilan birga yaqin tariximizni aks ettiradi. Bundan tashqari insonning zamonaviy dunyoqarashini ham shakllantiradi. Isojon Sultonning yana bir ustunlik jihati shundaki, unda falsafiy dunyoqarashlar ham o‘zining yorqin ifodasini topgan. Jumladan: *“Daraxtlar orasidagi g‘alati chirildoqlar qattiq ovoz chiqarib chirillashadi.*

-Muncha baqirmasa?- deb so‘raydi onam.

- O‘zimizning chirdoqlarmi shular?

- Yo‘q, boshqacha,-deyman.

-Bor-yo‘g‘i ikki kun yashaydi. Juda qattiq chirillab, baqira-baqira yorilib ketadi”.

Ya’ni bunda ijodkor aynan inson qismatiga bitilgan narsadan qochib qutila olmasligiga urg‘u berib o‘tmoqda. Qarang chigirtkani aytadiki bor-yo‘g‘i ikki kun yashaydi va baqirib o‘ladi deyapti. Shu o‘rinda “Qismat” hikoyasini bir yodga solsak. Unda asar peyzaji tasvirida kapalakka urg‘u berilganligini bilamiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi bu orqali bizga berilgan goh qisqa fursatmi, goh uzunmi mazmunli o‘tkazish o‘zimizni qo‘limizda ekanligini ta’kidligan.

Aziz asrimizning aziz onlari,

Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.

Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la

Bezamoq chog‘idir umr daftarin. [2.113.]

Hayot deb atalmish in’omdan tashqari Allohim unga qo‘sha har kimning va har bir tirik mavjudotning rizqini ham berar ekan. Asarda keltirilgan ushbu jummalarga nazar tashlasak: *“-O‘zimizda Zuhra aya degan bir xotin bor,-deydi keyin .- Toshkentga kelayotganida tomog‘iga non uvog‘i tiqilib qolibdi. Suv ichsayam ketmashish, yo‘talsayam chiqmashish. Toshkentga yetib kelib, endi do‘xtirga oboramiz deb turishsa, o‘g‘li yelkasiga bir urgan ekan, otilib chiqib ketibdi degin. Bir musicha non uvog‘ini shundoq cho‘qibdi-yu pir etib uchib ketibdi”.* [1.] Umr bu



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

misli yum-yumoloq shar kabi kimdir mehnati, kimdir qiyinchilik ila kimdir o‘z rizqini teradi. Shuncha joni qiynalib kelgan Zuhra aya tomog‘idagi nonni birr qushcha ilib ketdi.

Endi asar davomiyligiga nazar tashlang. Yuqoridagi voqeadan so‘ng ijodkor asta-sekinlik bilan farzandning ota-onaga bo‘lgan mehr va hurmatini tushuntirishga e‘tibor qaratgan. *“Mehnatlar, zahmatlar, qanchadan qancha qiyin-mashaqqatli kunlar, o‘ylasam, ichim to‘lib ketyapti. Otang, singillaring, qo‘ni-qo‘shnilarim... bari ko‘z oldingga kelib turishibdi. Bolajon, bu joylar nihoyatda ajoyib ekan... Umrim bino bo‘lib ko‘rganim dasturxonda bir burda non-choy, nonpalov, yovg‘on bo‘ldi. Yetti pushtim yetti uxlab tushiga kirmagan joylarga opkeb qo‘yding-u... Mana, ertaga tong ham otadi. Shu chiroyli suvlar adog‘idan quyosh chiqib keladi”*. [1.] Bundagi badiiy tafakkurning juda ajoyib bir ko‘rinishi o‘zining yorqin namunasi topgan. Chunki unda olam qonuniyati shundan iboratligiga ishora qilmoqda. Ya‘ni har bir ota-ona o‘z farzandi uchun mehnat qiladi, farzand esa o‘z farzandlari. Bugun qaytmasligi mumkin, lekin, albatta, ertangi kun yana kela beradi. Umuman har bitta asarda hayot qonuniyatlari bilan birgalikda xalqning ijtimoiy hayotini ham namoyon etadi. *“Adabiyot va san‘atda davr talabi va ijod ma‘sulyati, xalq ulug‘vorligini anglash, tarixini teran bilish bilan bog‘liqligi ijod jarayonida mazmunga nisbatan hayot materialini cheklash bilan estetik ideal ifodasi, xarakterning asosiy belgilari singari masalalar o‘tmishd ham, bugungi kunda ham mashur so‘z san‘atlarining chetda turmagan”* - degan ushbu jumlar juda o‘rinlidir. [3.]

Asardagi asosiy motiv asli o‘zi “Vatan sog‘inchi”dir. Ona va farzand safari qarib aeroportda kelgan paytida, O‘zbekistonga uchuvchi yo‘lovchilarni chaqirayotgan paytda onaning holatini bir qarang “-Voy O‘zbekiaton dedimi?” deb hayron qolishi, bundan tashqari “El-yurtsiz dengiziyam, tog‘iyam tatirmidi?”. Rostdan ham Tog‘ay Murod bu borada shunday degan edi: *“El-yurtga bo‘lgan mehr-muhabbat... O‘ta ichki bir muhabbat bo‘ladi. O‘ta sehrli-sirli bir mehr bo‘ladi. Ona yurtga bo‘lgan muhabbat yigitni qizga bo‘lgan muhabbati misol...botinan bo‘ladi, asl bo‘ladi. El yurtga bo‘lgan mehr-muhabbatni.. mikrafon orqali izhor etib bo‘lmaydi! Shu boisdan-da uni oti mehr-muhabbat. El-yurtga bo‘lgan mehr-muhabbatni amalda bajaradilar, amlada ko‘rsatadilar”*. [3.101.]

Xulosa qilib aytganda, globollashayotgan davrda va rivojlanayotgan jamiyatimizda yoshlar ma‘naviyatini yuksak saviyaga ko‘tarishda, albatta, Isojon Sultondek ijodkorlarning o‘rni nihoyatda ahamiyatga egadir. Chunki, hikoya tahlilida ham ko‘rdikki, u faqat asarga bir tomondan yondashmagan. Balki, bosh qahramon vositasida “Vatan” deb atalmish muqaddas so‘zni, uni sevishdek ezgu



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

g'oyani aynan avj nuqtasiga olib chiqadi. Bundan tashqari asar o'zi qisqagina hikoya bo'lishiga qaramasdan hattoki, zamonaviy hayotimizning qirralarini o'zida aks ettirganligi bilan alohida ahamiyatlidir.

IQTIBOSLAR:

1. Isajon Sulton. Men, Onam va O'rta Yer dengizi (hikoya). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, №5, 4352. 29.01.2016
2. Sultonmurod Olim., Sunnat Ahmedov., Rahmon Qo'chqarov. 8-sinf adabiyot. Darslik. -Toshkent, 2019 113-b
3. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -Toshkent: "Sharq" NMAK Bosh tahririyati, 2001, 101-b

